

## **“O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA MILLIY TAROVAT**

Ikromov Amriddin Toyirovich,

Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

+99 646-32-83

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida yurt mustaqilligi, insonlar taqdiri, ota-onas, farzand, kelin, kundoshning burchlari, vazifalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, romanda o’zbek xalqining milliy tarovati namunalari aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** yozuvchi, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek, O’zbekoyim, milliy tarovat.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассказывается о независимости страны, судьбах людей, обязанностях и ответственности родителей, детей, невесток, супругов в романе Абдуллы Кадири «Ушедшие дни». Также в романе показаны образцы национальной свежести узбекского народа.

**Ключевые слова:** писатель, Отабек, Кумуш, Зайнаб, Юсуфбек, Узбекоим, национальная свежесть.

### **ANNOTATION**

This article talks about the independence of the country, the fate of people, the duties and responsibilities of parents, children, daughters-in-law, spouses in Abdulla Qadiri's novel "Gone Days". Also, the novel shows examples of the national freshness of the Uzbek people.

**Key words:** writer, Otabek, Kumush, Zainab, Yusufbek, Uzbekoyim, national freshness.

Ko‘p asrli o’zbek adabiyoti tarixidagi ikki adabiy asmi milliy adabiyotimiz tarixinining oltin sahifalari, desak adolatdan bo‘ladi. Agar shu ikki asrning biri buyuk Navoiy nomi bilan munavvar bo‘lgan XV asr bo‘lsa, ikkinchisi Abdulla Qodiriy,

Fitrat va Cho‘lponning porloq ijodlari bilan boshlangan o‘zbek adabiyoti tarixining yangi davri — XX asrdir. Shu ikki oltin asrning mash’allari bo‘lgan bu adiblarning har biri milliy adabiyotimiz tarixidagi mo‘jizaviy voqeadir.

Abdulla Qodiriy asarlari uning benazir poetik tafakkuridan darak beradi. Badiiy tafakkur esa nutq hodisasi bilan bog‘liq, albatta. Har bir millat adibi o‘z milliy tilida fikr yuritadi, shu milliy tilning lug‘at boyligiga tayanib ijod qiladi. Abdulla Qodiriy yozadi: so‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘zagina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir. Bundan boshqa fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so‘z va jumلالarga yozuvda aslo o‘rin berilmasligi lozim.

Abdulla Qodiriy dastlabki davrlardayoq adabiy-ijodiy ishga zo‘r mas’uliyat bilan qaraydi. Shunga ko‘ra badiiy asar yozishda hayot haqiqatini yaqindan turib, puxta o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Ana shu maqsadda ko‘p joylarni yayov kezib chiqadi, turli toifa odamlar hayotini sinchiklab o‘rganadi, tadqiq etadi. Abdulla Qodiriy ijodiy prinsipini: “Men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman, har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqe sababchi bo‘ladi”<sup>1</sup>, – tarzida ifodalagan edi.

Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumush, Anvar va Ra’nolar taqdirini esga olmaydigan o‘zbek ziyolisi, adabiyot muhibi topilmasa kerak. Adibning badiiy so‘zida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois “O‘tkan kunlar”ni necha topqir o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi, zerikmaydi; qayta o‘qishga zarurat sezaveradi. Roman zavq-shavq bilan yutoqib o‘qiladi. Qayta o‘qishda asarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o‘qilganda e’tiborsiz o‘tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqe-hodisalar bayon usuliga tegishlidir. Zero, adabiyotdek so‘z san’at uchun badiiy til juda muhim sanaladi; so‘z vositasida obrazlar, manzaralar, tuyg‘ular suvratlantiriladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning alifbosi.

Adibning ijodi, uning mazmunga boy asarlari yuzasidan taniqli ijodkorlarimiz o‘zlarining iliq fikrlarini aytib o’tgan. Jumladan, adabiyotimizning ulkan jonkuyari akademik Izzat Sultonov: “Abdulla Qodiriyning asarlari badiiy mahorat namunasidir. Bu asarlarda asosiy g‘oya doimo yaqqol ifoda qilinadi, odamlar va ularning hayot sharoiti xuddi “ko‘z oldimizda turgandek” tasvir etiladi, bu asarlarning syujeti doimo qiziqarli, tili boy va shirali. Bu asarlarning xalqqa manzur

<sup>1</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlod, 2005. 138-b



bo‘lgani bejiz emas”, - deb yozgan bo‘lsalar, Akademik Oybek esa adib mahoratini: “Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g‘oyatda yaxshi bilganligi yaqqol seziladi; uning romanlari ana shunday go‘zal til bilan yozilgan. U tug‘ma epik yozuvchi, keng ko‘lamdag master, yuksak ma’nodagi realistik san’atkor edi”,<sup>2</sup> - tarzida yuksak baholagan.

Abdulla Qodiri o‘z davrining ilg‘or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg‘urdi. Zamon taloto‘plari adib qalbini iztirobga soldi. “O‘tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari” — yurtni mustamlaka balosiga yo‘liqtirgan keyingi noahil “xon zamonalari”dan so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ldi. Romanning ma’no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqolli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkani fidoyi kishilar sanaladi.

“O‘tkan kunlar” romani bamisol ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlanadi.

“O‘tkan kunlar”ni yozar ekanman, deydi Abdulla Qodiri, doimo ko‘z o‘ngimda kitobxon ommamiz turar edi. Men bu kitobim bilan xalqimiz rag‘batini bir oz bo‘lsa ham yangilikka tortay, der edim... Modomiki, asar saviyasi o‘zimizga ma’lum shu xalq uchun yozilar ekan, yana bir muncha vaqt “so‘nggi priyom”lardan ko‘z yumib turish, oraliqda so‘nggi priyomni oz-oz qistira borish lozimdir. Na uchunkim, so‘nggi priyomda yozilgan she’r va nasrlarimiz bir tabaqagagina xos bo‘lib qola bergani da’vomizga dalildir.

Romandagi Otabek va Kumushbibi o‘rtasidagi muhabbat qissasi roman syujetining asosini tashkil etadi. Biroq yozuvchi bu ishqiy sarguzashtni tasvirlash bilan kifoyalanib qolmaydi. Balki bu ikki yoshning sevgisini tasvirlash fonida o‘scha davr mamlakat hayotining tavsifnomasini yaratadi.

Romandagi uchlik — oshiq, ma’shuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbat, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan ko‘rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebah” — ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir injha tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan

<sup>2</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlod, 2005. 136-b



Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni — Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.<sup>3</sup>

“O‘tkan kunlar” romanining yana bir muhim fazilati shundaki, asarda milliy tarovat ufurib turadi. Bu xususiyat obrazlarning ichki va tashqi qiyofasida ham, peyzaj va syujet tasvirida ham yaqqol ko‘rinadi. Romanda ifodalangan milliy tarovat asar ta’sirlilagini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobxonga xalqimizning urf-odatlari, rasm-rusumlari, mehmon kutish, sovchi yuborish, to‘y qilish, qiz uzatish, kelish tushirish kabi marosimlariga oid juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlar beradi.<sup>4</sup>

Abdulla Qodiriy romanda o‘zbekning sokin oilaviy hayot tarzini ham, kundosh kelinlar orasidagi o‘zaro nizolar va ularning yechimini ham juda ishonarli, bag‘oyat mahorat bilan tasvirlaydi. Romandagi tasvirlarga ko‘ra, Yusufbek hoji agar ikki kelin o‘rtasida “so‘z chiqqanini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldiga chaqirib” nasihat qiladi. “Avvalo Kumushdan o‘pka qilib: “Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan kichikka shafqat lozim, mundog‘ yaxshi emas!” degan gaplarni aytadi. So‘ngra Zaynabga nasihatlar berib, “keyin ikkisini duo qilib, bir-biriga salom” berdiradi. Qaynona-kelin munosabatlari ham Yusufbek hojidek dono-donishmand oila rahbari nazaridan chetda qolmaydi. Romandagi juda tabiiy obrazlardan biri bo‘lgan O‘zbek oyim bilan Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor bilan Oftob oyim munosabatlari ham butun salobati bilan kitobxon tasavvuriga muhrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o‘z asarlarida juda unumli va o‘rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o‘zbek adabiy tilining go‘zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o‘z aksini topdi. Kelajak-avlodga “O‘tkan kunlar”dek mazmun va ma’noga boy asarlarni ularning qalbi-yu, ongiga singdira olsak, alardin ota-onaga tik qaramaydigan, do‘q-po‘pisa qilmaydigan Otabeklar, odob-axloqda barchaga namuna bo‘ladigan Kumushlar voyaga yetadi.

<sup>3</sup> Jahon adabiyoti jurnali. 2013.

<sup>4</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlod, 2005. 149-b

